

ISLOM TARAQQIYOT BANKINING TADBIRKORLIK SUBEKTLARINI KREDITLASH FAOLIYATIGA OID NORMATIV HUJJATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Otabek Mutalov

o.mutalov@auni.uz

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Angren universiteti dotsenti v.b.

Gulbahor Nishanova

g.nishanova@auni.uz

Angren universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki (ITB) guruhi o'rtasidagi hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishi, a'zolikning huquqiy asoslari, amalga oshirilgan loyihalar hamda islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining tatbiqi tahlil etiladi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab ITB bilan boshlangan hamkorlik bugungi kunda infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va tadbirkorlik sohalarini qamrab olgan keng qamrovli investitsiyaviy dasturlar orqali davom etmoqda. Shuningdek, maqolada O'zbekiston qonunchiligida islomiy moliyalashtirish me'yorlariga moslashuv darajasi tanqidiy tahlil qilinadi hamda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bank, soliq va moliya tizimlarida zarur bo'lgan islohotlarga e'tibor qaratiladi. Islomiy moliyalashtirish vositalarining rivojlanib borayotganini hisobga olgan holda, ularni milliy huquqiy baza bilan uyg'unlashtirish bugungi kun talabi ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Islom taraqqiyot banki, O'zbekiston, islomiy moliyalashtirish, murobaha, ijara, istisno', xususiy sektor, investitsiya loyihalari, moliyaviy islohot, xalqaro moliya institutlari, islomiy moliyaviy mahsulotlar.

ITB mamlakatimizdagi faoliyatini a'zo bo'lmagan davlatlarning musulmon jamoalarini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlagan.

O'zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustda "O'zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga a'zoli to'g'risida"gi 371-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorning 1-bandida belgilanishicha, Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonning Islom taraqqiyot bankiga (ITB) a'zo bo'lishi to'g'risida Bank rahbariyatiga rasmiy maktub bilan murojaat qilgan hamda ushbu so'rov Bank tomonidan ma'qullangan.

Ushbu qaror bilan O'zbekiston 1974-yil 12-avgustdagi "Islom taraqqiyot bankini ta'sis etish to'g'risidagi Bitim" moddalarini qabul qildi hamda barcha a'zo davlatlar kabi bank ustaviga sarmoya kiritish maqsadida ITBning nominal qiymati 10000 islom dinori bo'lgan 250 ta aksiyasini sotib oldi.

Shuningdek ITB ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-fevraldagi "Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 65-son qarori qabul qilindi.

Qaror bilan 2004—2007-yillarda ITB bilan birgalikda amalga oshirish mo'ljallangan loyihalar hamda birgalikdagi loyihalar va texnik ko'maklashish grantlarini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Yuqoridagi qarorning 4-bandida hamkorlikda amalga oshiriladigan yangi loyihalarni ishlab chiqish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra ITB ishtirokida ishlab chiqiladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga topshiriqlar ishchi guruhlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligiga majburiy tartibda kelishish uchun taqdim etiladi. Yangi loyihalarni moliyalashtirishga buyurtmanomalar Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari rahbarlari va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgandan keyin Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investisiyalar departamenti tomonidan Islom taraqqiyot bankiga yuboriladi.

Qarorning 1-ilovasida 2004-2007-yillarda Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirish mo'ljallangan 16 ta loyiha tasdiqlangan. Bu loyihalarning umumiy qiymati 853,8 million AQSH dollari bo'lib, shundan ITB tomonidan moliyalashtirilishi belgilangan qismi 456,5 million AQSH dollarini

tashkil etadi. Ushbu loyihalarga mablagʻ ajratishda islomiy moliyalashtirishning «ijara» va «murobaha» shartnomalaridan foydalanilgan.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida hamda Oʻzbekistonning Islom taraqqiyot bankiga aʼzolidan kelib chiqib, 2004-yil 21-dekabrda Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasining Xususiy sektorni rivojlantirish boʻyicha islom korporatsiyasiga aʼzoli toʻgʻrisida”gi 596-son qarori qabul qilindi. Bu qaror bilan Oʻzbekiston “Xususiy sektorni rivojlantirish boʻyicha Islom korporatsiyasini taʼsis etish toʻgʻrisida” 1999-yil 3-noyabrdagi Bitim moddalarini qabul qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga XSRIK oʻz avuarlarini saqlashi mumkin boʻlgan depozitariy va Xususiy sektorni rivojlantirish boʻyicha Islom korporatsiyasini taʼsis etish toʻgʻrisida 1999-yil 3-noyabrdagi Bitimga bogʻliq masalalar yuzasidan XSRIK bilan aloqalarni amalga oshirish funksiyalarini bajarish yuklatildi.

Korporatsiya asosan tadbirkorlik subʼyektlarini kreditlash faoliyati bilan shugʻullanadi va yuridik shaxslarga toʻliq shariatga muvofiq ijara (lizing) xizmatlarini koʻrsatish uchun 2010-yil Toshkentda Taiba Leasing xorijiy korxonasi tashkil etildi.

XSRIK tomonidan bugungacha mamlakatimizda 350 million dollardan ortiq loyihalarni moliyalashtirish maʼqullangan. Korporatsiya Oʻzbekistondagi faoliyatida asosan «murobaha» moliyalashtirish usulidan foydalanadi.

ITB va Oʻzbekiston oʻrtasigi munosabatlar rivojlanishining keyingi bosqichida «Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish» loyihasini moliyalashtirish uchun 2014-yil 22-oktyabrda qiymati 100,0 million AQSh dollari miqdorida moliyaviy mablagʻlar berish toʻgʻrisidagi moliyaviy bitim tuzildi. Ushbu mablagʻlar ITB tomonidan istisna moliyalashtirish usuli orqali kiritildi. Bu bitim yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-iyuldagi 189-son qarori bilan “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar boʻyicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi doirasida Islom taraqqiyot bankining jalb etilgan moliyaviy mablagʻlaridan foydalanish, ularga xizmat koʻrsatish va ularni qaytarish tartibi toʻgʻrisida” Nizom tasdiqlandi.

Islomiy moliyaviy tashkilotlardan investisiya jalb qilishni kengaytirish masalasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda qabul

qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida ham belgilab o‘tildi. Unda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish orqali Islom taraqqiyot bankining 1,0 mlrd. AQSh dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda kreditlarini jalb qilishni ko‘zda tutadigan investisiyaviy loyihalarni amalga oshirish masalasini ishlab chiqish orqali 2017-2019-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish masalasi qo‘yilgan.

ITB tomonidan ajratiladigan kreditlar asosan davlatlarga berilib, tadbirkorlik sub’yektlariga ajratilmaydi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirishda ilg‘or xalqaro tajribani tatbiq etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot banki mablag‘larini xususiy sektorga ham jalb etishni kengaytirish maqsadida 2019-yil 1-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investisiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash islom korporatsiyasiga a‘zoliigi to‘g‘risida” PQ-4147-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston 2006-yil 30-maydagi “Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasini ta’sis etish to‘g‘risida Bitim” va 1992-yil 19-fevraldagi “Investisiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash islom korporatsiyasini ta’sis etish to‘g‘risida” Bitimlarni qabul qildi.

Yuqoridagi bitimlar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha XISMK va IEKSIK bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi vakolatli organ — O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi etib belgilandi

XISMK va IEKSIK o‘z avuarlarini saqlashi mumkin bo‘lgan depozitariy — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki deb belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari E.M. G‘aniyev O‘zbekiston Respublikasi nomidan Islom taraqqiyot banki guruhi boshqaruvchisi etib tayinlandi va unga quyidagilar:

Islom taraqqiyot banki guruhi Boshqaruvchilar kengashining yillik yig'ilishlarida, jumladan XISMK va IEKSIKning Bosh assambleyalarida O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish vakolatlari berildi.

ITB bilan uzoq muddatli sheriklikni yanada kengaytirish, shuningdek, ustuvor loyihalarni va hamkorlik dasturlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martda "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4224-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga binoan ITB guruhi bilan uzoq muddatli sherikligining asosiy yo'nalishlari hamda vazifalari, jumladan, 2019-yilda ITB guruhi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejasi (Yo'l xaritasi) tasdiqlandi.

Prezidentning ushbu qarori ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-mayda "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 428-son qarori qabul qilindi. Bu qarorda ITB bilan hamkorlikni rivojlantirish rejasidan tashqari birgalikda amalga oshirish taklif etilayotgan istiqbolli investisiya loyihalari ro'yxati ham tasdiqlandi.

Shuningdek, 2018-yilning mart oyida O'zbekiston va Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi (SMXIK) o'rtasida savdo operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida 100 mln. dollarlik hadli bitim imzolandi. Unga ko'ra korporatsiya O'zbekistonning tashkilotga a'zoligiga qadar savdo loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi va bugungi kungacha ITFC tomonidan Aziya Aliyans Bank, Trastbank va Kapitalbankka murobaha moliyalashtirish liniyasi taqdim etildi¹¹.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrda "Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi mablag'laridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 845-son qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra Moliya vazirligiga SMXIK bilan murobaha moliyaviy bitimi tuzishiga ruxsat berildi.

2004-yildan buyon ITB guruhi O'zbekiston Respublikasiga yo'l-transport, energetika va kommunal infratuzilma, qilish, qishloq joylarda uy-joy qurilishini modernizatsiya qilish, ichimlik suvi ta'minoti, sog'liqni saqlash va ta'lim

¹¹ С.С.Харон, N.W.Azmi. Ислоний молиялар ва банк тизими. Фалсафаси, тамойиллари ва амалиёти. [Матн] – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б 256-257.

tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun umumiy miqdori 1,9 mlrd. dollar bo'lgan uzoq muddatli kreditlar berildi¹².

2018-yil 18-19-sentyabr kunlari Toshkentda ITB guruhi kuni o'tkazilib, ularning yakunlari bo'yicha O'zbekistonda istiqbolli dasturlar va loyihalarni amalga oshirish to'g'risida kelishib olindi va ITB guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasida 1,3 mlrd. dollar miqdoridagi investisiya loyihalarini moliyalashtirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi bilan ITB guruhi o'rtasida 2018 — 2021-yillarga mo'ljallangan Sheriklik strategiyasi imzolandi.

Shuningdek, ITB "Strategik tayyorgarlik va choralar to'plami" (umumiy qiymati 2,3 mlrd. AQSH dollari) dasturi doirasida, O'zbekistonga koronavirus pandemiyasi vaqtida har tomonlama ko'mak berish maqsadida kichik va o'rta biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun qiymati 140 mln. dollardan ortiqroq bo'lgan kredit mablag'lari ajratildi¹³.

Yuqorida ko'rib chiqilgan hujjatlarda asosan ITB guruhidagi tashkilotlarga a'zolik, ulardan kreditlar olish hamda ishlatish masalalari tartibga solingan. O'zbekiston qonunchiligi islomiy moliyalashtirish tizimiga moslashmagan bo'lib, bu holatni yaxshilash uchun qonunchilikda islohotlar qilinmayapti.

Hozirgi vaqtda ITB O'zbekistonda mijozlariga moliyalashtirishning quyidagi vositalarini taklif etmoqda:

- murobaha;
- istisno';
- ijara;
- murobahaga asoslangan moliyalashtirish liniyalari.

Mazkur moliyalashtirish usullarida Islom taraqqiyot banki yoki XSRIK tomonidan taqdim qilingan shartnomalar ishlatiladi. Bu moliyalashtirish yuridik shaxslarga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan islomiy moliyalashtirish xizmatlari va mahsulotlari mavjud emas, shuningdek, yuridik shaxslar uchun ham yuqorida qayd etilgan mahsulot va xizmatlardan

¹² З.Асатуллаева, Халқаро иқсодий муносабатлар тизимида кўптомонлама тараққиёт банклари: фаолияти хусусиятлари ва Ўзбекистон республикаси билан ҳамкорлигининг истиқболлари, Халқаро муносабатлар журналі, 2009, 2-сон, -Б. 117-128.

¹³ Ислон тараққиёт банки расмий сайти — <https://www.isdb.org/news/president-of-the-islamic-development-bank-group-covid-19-and-micro-small-and-medium-enterprises-saving-the-global-economy-from-the-pandemic>

tashqari xizmatlar, ya'ni islomiy sug'urta yoki depozitlar va h.k. islomiy mahsulot va xizmatlar taklif etilmagan. Kreditlashning ushbu shakli borgan sari rivojlanib borayotganligi inobatga olinsa, O'zbekistonda xam bank, qimmatli qog'ozlar, soliq va boshqa sohalarni islomiy moliyalashtirish me'zonlariga moslashtirish zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. С.С.Харон, N.W.Azmi. Исломий молиялар ва банк тизими. Фалсафаси, тамойиллари ва амалиёти. [Матн] – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б 256-257.
2. З.Асатуллаева, Халқаро иқсодий муносабатлар тизимида кўптомонлама тараққиёт банклари: фаолияти хусусиятлари ва Ўзбекистон республикаси билан ҳамкорлигининг истикболлари, Халқаро муносабатлар журналы, 2009, 2-сон, -Б. 117-128.
3. Mutalov, O. B. (2022). Project civil code of the republic of Uzbekistan: Token, blockchain and smart contracts. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), 344-348.
4. Жураева, А. Б. (2020). PRIOR RIGHTS IN TRADEMARK IN UZBEKISTAN, CHINA AND GERMANY COMPARATIVE STUDY.
5. Ислом тараққиёт банки расмий сайти – <https://www.isdb.org/news/president-of-the-islamic-development-bank-group-covid-19-and-micro-small-and-medium-enterprises-saving-the-global-economy-from-the-pandemic>